

## TALABALAR ILMIY- TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATINING TASHKILIY, PEDAGOGIK VA MA’NAVIY TAMOYILLARI

*Tog‘aev Xo‘jamberdi* – Xalqaro Antigue World Ilmiy Akademiyasi doktori, akademik. Akademiya “Ixtiolar markazi” direktori. Tarix, biologiya, fizika-matematika, texnika fanlari bo‘yicha qit’alararo mutafakkir (SOPHIST). London (Buyuk Britaniya) “Xalqaro Akademiyasi va Oliy ta’lim”da “Butun Dunyo qit’alararo, mintaqalararo, millatlararo ilmiy ishlar tahlili” bo‘yicha ekspert a’zosi. Jizzax Davlat pedagogika instituti “Ixtirochilar” ilmiy to‘garagi raxbari.

**Umarov Raxim** – Jizzax Davlat pedagogika instituti dotsenti, Жиззах,

Ўзбекистон

*e-mail: [togaev@jspi.uz](mailto:togaev@jspi.uz)*

**Аннотация:** Maqola talabalar ilmiy – texnik ijodkorligi faoliyatini samaradorligining yuqori bo‘lishini ta’minlashda tashkiliy, pedagogik va ma’naviy tamoyillarning ahamiyatiga bag’ishlangan.

**Kalit so’zlar:** tamoyil, sharoit, faoliyat, ketma-ketlik, mazmun, ilmiy asos, yaratish.

\*\*\*

**Аннотация:** Статья посвящена значению организационно педагогических и моральных принципов при обеспечении высокой эффективности научно – технического творчество студентов.

**Ключевые слова:** принцип, условия, деятельность, проследовательность, содержание, научной основы, создание.

\*\*\*

**Annotation:** The article is devoted to the importance of organizational, pedagogical and moral principles while ensuring high efficiency of scientific and technical creativity of students.

**Key words:** principle, conditions, activity, sequence, content, scientific basis, creation.

Talabalar ilmiy texnik ijodkorligi (TITI) faoliyatining samaradorligi yuqori bo‘lishini ta’minlashda uning tashkiliy - pedagogik va ma’naviy tamoyillari muhim ro’l o’ynaydi. Tashkiliy - pedagogik tamoyil deganda, TITI faoliyatida qilinadigan barcha amaliy ishlar uchun qulay muhit va sharoit yaratib berishga qaratilgan ishlar ketma – ketligi va mazmunining ilmiy asoslari nazarda tutiladi.

Buni quyidagicha izohlash mumkin. Ma’lumki, talabalar ilmiy - texnikaviy ijodkorlik faoliyatiga butun o’quvi davomida jalb qilinib boriladi. Shunday hollar bo’ladiki, ijodkorlik masala yechimi qurilma, maket va boshqa harakatlanuvchi ob’ektni tayyorlashni taqozo etadi. Ba’zan qurilmani ustaxona sharoitida yillab (darsdan keyin) tayyorlashga to’g’ri keladi. Bu muammo o’z navbatida ba’zi qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Masalan, qurilmani tayyorlash uchun maxsus asbob - uskuna, xomashyo (elektrdvigatel, elektrod, yog’och, har xil standart detallar)lar talab qilinadi. Shuningdek, qurilmani tayyorlash cho’zilib ketganda,

chala qolgan qismini ustaxonada qoldirib bo'lmaydi. Ushbu muammo TITI faoliyatini uchun maxsus xona ajratilishini taqozo etadi.

TITI kabinetining qurilish - me'yorlariga sanitariya – gigiena rejimiga mos kelish tamoyili- bu tamoyil yuqorida so'z yuritilgan muammoni hal qilishni, ya'ni kabinetning tarkibiy qismi va maydoni, yoritilganligi, havo – issiqlik rejimi va jihozlarning muvofiq joylashuvini ilmiy asosda tashkil qilishni nazarda tutadi.

**Kabinetni mehnat muhofazalari va xavfsizlik talablariga mos holda jihozlash tamoyili** – bu tamoyil nomiga mos holda TITI faoliyatini jarayonida talabalarning unumli, qulay va ko'tarinki ruhda xavfsiz ishlashini nazarda tutadi.

**Mehnatni oqilona tashkil qilish tamoyili** – bu tamoyil, asbob-uskuna, jihoz, xomashyolarni muvofiq joylashtirish va o'quv (konsultatsiya) joylarini to'g'ri tanlash kabi ishlarni nazarda tutadi.

**Ko'rgazmali o'quv jihozlaridan foydalanish tamoyili** – bu tamoyil, TITI faoliyatida, shu ilm maskanida mavjud bo'lgan barcha fanlarga tegishli jihozlardan (zarurat bo'lganda) foydalanish bilan, eng kam mablag' sarflab, kerakli oddiy asosni yaratishni nazarda tutadi.

Yuqorida zikr etilgan tashkiliy-pedagogik tamoyillardan tashqari yana:

TITI faoliyatida – tabiiy, ilmiy, gumanitar va gnesologik jihatlari bilan birga ijtimoiy jihatlari ham hisobga olinsa, uning talabalarda ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati yanada muhim bo'ladi. Chunki, unda ishlab chiqarish mehnatining ijtimoiy ahamiyati, amaliy, iqtisodiy-ekologik muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish hamda insonning tabiatga, bilishga turlicha munosabatlari mujassamlanadi, insonlarga, jamiyatga munosabati ijobjiy shakllanadi. Bu esa ularda shaxsning jamoa bo'lib ishlash o'zaro yordam va birdamlik kabi ma'naviy tuyg'ularning qaror topishida, jamiyat farovonligi uchun ijod qilishida barqaror tashabbuskorlikni vujudga keltiradi.

Ma'naviy dunyoqarashning muhim tomoni sifatida namoyon bo'ladigan shaxsning axloqiy yo'nalishi va undan keyingi axloqiy hatti-harakatlari shakllanishining xususiyati shundaki, axloq me'yorlarini sof didaktik yo'llar bilan singdirish mumkin emas. Shu ma'noda o'quv jarayonida amaliy aloqalar va munosabatlarning talabaning jamoa bilan, xususan to'garak a'zolari, umuman butun jamoa bilan xilma-xil va har tomonlama aloqasini ta'minlaydigan TITI faoliyati ma'naviy tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun sharoit yaratish muhim ahaiyatga ega. Shunga ko'ra biz tavsiya etayotgan TITI faoliyatining ba'zi ma'naviy tamoyillari mazmuniga e'tiborni qaratamiz.

### **Talabalar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyati ma'naviy tamoyillari**

**Ongli munosabatda bo'lish tamoyili** – bu tamoyil, ijodkorlik intilishi bilan faqat o'zining shaxsiy mayl, talab va ishtiyoqini qanoatlantirishni o'yamasdan, undanda muhimroq bo'lgan jamiyatga ko'proq naf keltirishni ko'zlab, ongli

munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Chunki har qanday ijodkorlik, xususan ilm maskanlaridagi ilmiy-texnikaviy ijodkorlik o'quv jarayoni dasturi hajmidagi yuklanmadan (ishlab chiqarishda esa xizmat vazifasi burchidan ) tashqari kechadigan, jiddiy ortiqcha tashvishni, bu mehnati uchun ijodkor hamisha ham rag'bat eshitavermaydi, uning jismoniy va aqliy mehnati ko'pincha uzoq vaqtlar o'lchov tarzida qolib ketadi. Shundat bo'lsa-da, oxir-oqibat uning ijodkorlikdagi erishgan ijobiy natijasi yuzaga chiqadi.

**Birdamlik tamoyili-** bu tamoyil, global ma'noda – dunyo haqiqiy olimlarining xalqaro birdamligi (bir-birini chin dildan, beg'araz qo'llab – quvvatlashi, ko'maklashishi) ni, ilm maskanlari miqyosida esa, masala yechimini topishda har xil soha vakillarining hamjihat bo'lib, vijdoran ulush qo'shishni nazarda tutadi.

**Vatanparvarlik tamoyili** – bu tamoyil, o'z vatani, xalqiga sadoqatli bo'lish, uning moddiy va ma'naviy yutuqlarini, shaxs ilmiy-texnikaviy ijodkorligini haqqoniy baholash hamda qadrlashni ko'zda tutadi.

**O'z ishiga sadoqatlilik tamoyili** – bu tamoyil, ijodkorning o'z ilmiy ijodkorlik ishi g'oyasiga behad sadoqatli, ilmiy dunyoqarashi (nuqtai nazari) ning haqqoniyligiga ishonch, tanlagan yechim yo'lini o'zi qismat deb bilib, dunyodagi barcha narsadan voz kechishdan ham qaytmasligini nazarda tutadi.

Mazkur tamoyillar va vazifalar tavsifi asosida nafaqat bo'lajak pedagoglarni va hatto boshqa kasb vakillarini ham ijodkorlikka tayyorlash jarayoning pedagogik loyihasini tayyorlash mumkin. Bu ishning texnik va kasbiy yo'nalishidagi maqsadi talabalarni maket, model, tajriba namunasini tayyorlash, texnikalarni takomillashtirish faoliyatiga jalb qilish bo'lsa, pedagogik kasbiy yo'nalishdagi vazifasi esa uzluksiz ta'limda texnika va texnologiyalar bilan bog'liq fanlardan ta'lim beradigan o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishdan iborat.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, texnika yo'nalishidagi barcha pedagoglarni texnik – pedagogik ijodkorlikka tayyorlash tizimidagi talablarni qaror toptirishning barcha tamoyillari, usul, yo'nalish, mezon va uzbek ketma – ketlik bosqichlarini ifodalovchi tarkibiy – tashkiliy elementlarning yig'indisi bo'lib, ular o'zida ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ilg'or pedagogik tavsifdagi jarayonlarni mujassam etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ayev X, Majidov J. О синергетической концепции управления деятельности высших учебных заведений. Сам ДУ Халқаро илмий – амалий анжумани тўплами, 2007-йил 20-21-декабр, Б.109-111.

2. Tog'ayev X, Umarov R, Burxonov R, Kasb-hunar ta'limida bo'lajak mutaxassislar kasbiy bilimlarini rivojlantirishning politexnik mazmuni Qarshi davlat universiteti Xalqaro konferensiyasi to'plami. 16-17 iyun 2007
3. Tog'ayev X va boshqalar. Umumta'lim maktablarida aniq tabiiy fanlar integratsiyasi. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti konferensiyasi materiallari to'plami. 26-26 may 2007-yil, Б.83-84